



**AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING
105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O'TKAZILGAN
XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI**



Toshkent – 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV
TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI
BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

Toshkent – 2025

UO‘K 314.151(575)(08)

KBK 607(543)

Y 83

Akademik Ubaydulla Karimov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 510 bet.

Mas’ul muharrir:

Bahrom Abduhalimov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.

Salima Eshonova – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Tahrir guruhi:

Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Farrux Kamoliddinov,
Doston Tojiyev, Sherzod Karimov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq renessansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.*

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

ISBN 978-9910-9030-5-2

orqali qisman tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot ishning mavzusi va hajmini inobatga olgan holda «Esdaliklar» va uning muallifi haqidagi ayrim ma'lumotlar tahlil qilindi xolos. Unda keltirilgan boshqa mavzular keyingi ishlar orqali elon qilinadi. Umuman olganda Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari XX asr tarixiga doir kelgusidagi tadqiqotlarga manba vazifani bajara oladi.

Foydalanilgan adabiytlar

1. Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари – Тошкент, 2001. – 350 б.
2. Вильданова А.Б. Ценный источник по истории Бухарского ханства // Материалы по Востоку.). – Тошкент: Наука, 1966. – С. 111-114.
3. Воҳидов Ш., Ансорова Ф. Мирзо Салимбек ва асари ў «Таърихи Салимӣ» (Муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал, эзоҳот). – Панҷакент, 2024. – 368 с.
4. Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединя ее к России (Бухара). – Тошкент, 1965. – С. 44-51.
5. Исмоил Салимов. Мирзо Салимбек. – Бухоро, 2011. – 20 б.
6. Мирзо Салимбек. Кашкӯли Салимий Таворихи мутақаддимин ва мутаахирин (Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳ ва кўрсатгичлар - тарих фанлари номзоди, доцент Йўлдошев Нарзуллоники). – Бухоро: «Бухоро» нашриёти, 2003. – 343 б.
7. Норкулов Н. «Та'рихи Салими» – ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860–1920). Автореферат дисс... кан. ист. наук. – Ташкент, 1968. – 22 с.
8. Норкулов Н. «Та'рихи Салими» как исторический источник // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1966, №4. – Б. 57–59.
9. Норкулов Н. Мирза Салимбек о Бухарских событиях 1918 года // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1966, №4. – Б. 59–61.
10. Норкулов Н. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: к.и.н. Н.К.Норкулов. – Ташкент, «Akademiyа». 2009. – 330 с.
11. Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек қолдирган мерос / Мозийдан садо, 2006. №. 4.
12. Собрание Восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Том 1. (Под редакцией и при участии: А.А.Семенова. – Ташкент, Издательство Академии наук УзССР («Фан»). 1952. – С. 93–94.
13. Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистан, История. Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. – Ташкент, 1998. – С. 232–233.
14. Список неопубликованных работ А.А. Семёнова составлен Д.Г. Вороновским. См. Сборник статей по истории и филологии народов Средней Азии. – Душанбе, 1953.

15. Mirzo Muhammad Rahimbek. Esdaliklar. Vohidova Malohat Abduvahhob qizining shaxsiy kutubxonasidan. – 100 varaq.
16. Mirzo Salimbek. Tarixi Salimiy. O‘zR FA SHI qo‘lyozmasi, № 2016. – 230 varaq.
17. Turayev H., Urinova Z., Kalandarova F. The Life And The Scientific Heritage Of Mirza Sami // Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1, 2021. – C. 212–218.
18. Qurbonov M. Mirzo Salimbekning «Tarixi Salimiy» asari tarixiy manba sifatida // Multidisciplinary Scientific Journal September, 2022. – B. 99–105.

Fayzullayev Farrux Eshqobilovich¹

FAZLULLOH IBN RUZBEHONNING «SULUK AL-MULUK» ASARINING TADQIQI VA TASNIFI

STUDY AND CLASSIFICATION OF THE WORK «SULUK AL- MULUK» BY FAZLULLAH BIN RUZBIHAN

Abstract. *Most of the shayban rulers who came to power in Movarounnahr in the 16th century were considered extremely educated and highly educated people of their time. This is acknowledged not only in Movarounnahr, but also in written sources created in Iran and Turkey. The sources of the shaybani period are well studied. Studies have been conducted. However, there are only a few manuscript works created during this period, which have been studied very little until now. This article provides information about the history of the writing of the work «Suluk al-muluk», copies and contents of the work of the shaybanid era historian Fazlullah ibn Ruzbehan.*

Key words. *Work, chapter, source, copy, «Suluk al-muluk», part, study, Shaybani, Shaybani Khan.*

Shayboniylar davri tarixi ko‘plab muarrixlar tomonidan yaxshi yoritilgan. Shulardan biri 1457–1521-yillarda yashagan Fazlulloh ibn Ruzbehon al Isfahoniydir. U Mullo nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Fazlulloh ibn Ruzbehon Fors viloyatining Hunji qishlog‘ida tug‘ilgan [6: 149]. Shayboniylar davrining mashhur adibi, tarixchi, ilohiyot olimi. Fazlulloh ibn Ruzbehon temuriylar va shayboniylar tarixini yetarlicha batafsil yoritgan olim sifatida tanilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
E-mail: Farrux-19-fayz@mail.ru

Uning otasi ham Isfahon zodagonlaridan bo'lib, tasavvuf namoyondasi va faqih Jamoliddin Ruzbehon bo'lgan. U Isfahonda tahsil olib, shu shaharning nisbasini qabul qilib, keyinchalik Ruzbehon Isfahoniy nomi bilan mashhur bo'lgan. U Hijozda, Makkada, Madinada va Qohira kabi shaharlarda tahsil olgan.

Safaviylarning shialik mazhabiga majburlash siyosatidan norozi bo'lib Erondan Movarounnahrqa qochib kelgan Fazlulloh ibn Ruzbehon Shayboniyxon (1451–1510, hukm. 1500–1510), Ubaydullaxon (1487–1540, hukmronlik yillari 1533–1540), saroyida ijod qilib va shu hududda yashab, bir necha tarixiy va badiiy asarlar yaratdi [4: 10]. Umrining qolgan qismini Buxoro va Karmanada o'tkazgan. U 1521-yilda Buxoroda vafot etgan, shu yerda dafn etilgan.

Fazlulloh ibn Ruzbehon ko'plab she'rlar muallifi, islom ilohiyotiga, shuningdek, tarixga oid kitob va asarlar muallifi. Uning «Halli tajarrid», «Taliqot bar muxolot», «*Tarixi olamoroyi Aminiy*», «*Suluk al-muluk*», «*Mehmonnomayi Buxoro*» nomli asarlarni yaratgan [6: 149]. Fazlulloh ibn Ruzbehonning «*Mehmonnomayi Buxoro*» va «*Suluk al-muluk*» asarlarida shayboniy hukmdorlar jumladan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon davri tarixini yaxshi yoritgan.

1509-yili yaratilgan «*Mehmonnomayi Buxoro*» asari Muhammad Shayboniyxonning qozoq sultonlari Jonish Sulton, Ahmad Sulton ulusi ustiga uyushtirgan harbiy yurishi tarixini bayon etadi. Muallif bu yurishda shaxsan ishtirok etgan, yuz bergan voqealarning ko'pchiligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, Ba'zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan eshitgan. Dunyo kutubxonalarida «*Mehmonnomayi Buxoro*» asarining ikkita nusxasi borligi aniqlangan. Ulardan biri muallif dastxati bo'lib, O'zRFA Sharqshunoslik institutida № 1414 raqam ostida va mazkur nusxadan ko'chirilgan nusxasi Turkiyada, «Nuri Usmoniya» kutubxonasida saqlanadi. 1976-yili R. Jalilova tomonidan «*Mehmonnomayi Buxoro*»ning Toshkent nusxasi asosida fors-tojik tilidan ruschaga tarjimasi va foto faksimil nashri amalga oshirilgan [8: 30].

Fazlulloh ibn Ruzbehon qalamiga mansub yana bir asar, «*Suluk al-muluk*» ya'ni «Podshohlarning xulq-atvori haqida» shayboniy Ubaydullaxonga bag'ishlab yozilgan. Asarning avtograf nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida asarning 10 ga yaqin nusxasi saqlanadi. Qo'lyozma nusxalarning barchasi fors tilida yozilgan.

Shulardan biri kitobat san'atining eng nodir namunasi aks etgan inventar raqami 10976 nusxasidir. Asar fors tilida, Buxoroda hijriy 920, milodiy 1514-yilda yozilgan. Asar 245 varaqdan iborat, 17 qator qilib, Sharq qo'g'ozida, Nasta'liq xatida, kotib Muhammad Sharif Nasafiy tomonidan XVIII asrda ko'chirilgan [1: 245]. Asar keng muqaddimadan iborat. Muqaddima 1 b

varaqqadan 20 b varaqqacha davom etib, unda asar yozilish sabablari keltirilgan. Qo'lyozmada Buxoro uslubida hoshiyalari mavjud [7: 145]. Matn va hoshiyalar oltin suvi bilan sayqallangan. Asar 15 bobdan iborat. Asar ayrim tadqiqotlarda qisman foydalanilgan bo'lsa-da hech bir tilga to'liq tarjima qilinmagan.

Ubaydullaxon taxtga yosh da'vogar bo'lib shu sababli unga bir qo'llanma zarur edi. Shuning uchun muallif bir asar yozishga qaror qiladi. Oltinchi bobga qadar Ubaydullaxonning Zahiriddin Muhammad Bobur munosabatlari va Shoh Ismoil Safaviy (1501–1524) qo'shinlarining yengilishi, janglari, shayboniylarning Movarounnahr hududlarini qayta egallashi haqida ma'lumotlar berilgan. Asarning muhim ma'lumotlari 6 bobdan ya'ni 138a–164b varaqqacha shariat asosidagi soliq siyosatiga bag'ishlangan [6: 164].

Kitobning boshlanishi bor, xotimasi bor. Xotimani ilmiy tilda kalofon deymiz. Kalofon qismida asarning ko'chirilgan yili, xattotning ismi qayerda ko'chirilganligi haqidagi statistik ma'lumotlar beriladi. Qo'lyozma asarlar kalofon qismida odatda xattotning ismi va ko'chirilgan yili beriladi. Biroq har doim ham xattot o'z ismini yozmaydi. «O'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin» deganlaridek har doim ham xattot o'z ismini keltirmaydi. Bu bilan savobdan bebahra qolaman degan maqsadda o'zini faqir, haqir ya'ni bir bechora inson tomonidan yozildi deb qayd etadi.

Fazlulloh ibn Ruzbehon «*Suluk al-muluk*» asarini yozishiga nima turtki bo'ldi?

Ma'lumki 1510-yil Muhammad Shayboniixon Shoh Ismoil Safaviy bilan to'qnashuvda halok bo'lgach, Shoh Ismoil Safaviy to'g'ridan to'g'ri Movarounnahr shaharlariga bostirib kirmaydi balki bu maqsadda Zahiriddin Muhammad Boburdan foydalanishga harakat qiladi. Bu yerda legitimlik masalasi ham mavjud bo'lib, Movarounnahr taxtiga Zahiriddin Muhammad Bobur temuriylarning vorisi sifatida haqli edi. Shoh Ismoil Safaviy Zahiriddin Muhammad Boburni Movarounnahrni shayboniylardan tortib olishga undaydi. Shu maqsadda Zahiriddin Muhammad Boburga Ahmadbek so'fi o'g'li va Shohruhbek Afshor boshchiligida qo'shin jo'natadi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1511-yil oktyabr oyida Samarqandni uchinchi bor egallaydi. Shayboniylar hukmronligiga chek qo'yiladi. Shayboniylar Movarounnahrni butunlay qo'ldan chiqaradi.

Shayboniylar qiyin ahvolda qoladilar. Shayboniylarning eng nufuzli sultonlari Toshkent hukmdori Muhammad Temur, Suyunchxojaxon, Farg'ona hukmdori Jonibek sulton, Samarqandda hukmronlik qilib turgan Ubaydullaxon Turkiston shahriga qochib o'tadi. Bu vaqtda Turkiston hukmdori bo'lib turgan shayboniy sultonlarning eng yoshi ulug'i Ko'chkunchixon tomonidan

qabul qilinadi. Shu tariqa Movarounnahrda 10 yil davomida mavjud bo'lgan Shayboniynon qurgan davlat qulaydi.

Din arkonlarini yaxshi bilgan shayboniy sultonlar butun asosini islomning sunniy mazhabini tashkil etgan Movarounnahr aholisi e'tiqodidan foydalangan deyish mumkin. Movarounnahr taxti uchun kurash siyosiy ham diniy kurashga aylanib ketadi. «Suluk al-mulk» asarida keltirilishicha shayboniy sultonlar 1512-yil 7-aprelda Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi oldida katta yig'in o'tkazadi. Unda Ubaydullaxon «*Agarda Movarounnahrni qo'lga kiritisa butun umr dindor hukmdor bo'lishga qasam ichadi...*». U umr davomida bunga amal qilgan. Shayboniy sultonlarning Turkistondagi yig'inidan so'ng, Ubaydullaxon Movarounnahr taxtini qayta egallash uchun Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi 1512-yil bahorida (taxminan 17-aprel – 16 may oralig'i) urushga chiqadi.

Muhammadiyor ibn Arab Qatag'onning (XVI – XVII asr) «*Musaxxir al-bilod*» («Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi») asarining Toshkent qo'lyozma nusxasi hoshiyasida »*Suluk al-muluk*» asarining muqaddimasi kelgan bo'lib, uning qisqacha yozilish tarixi aks etgan [5: 393]. 1512-yilning aprel oyining oxirlarida Jonibek sulton, Muhammad Temur va Ubaydullaxon Yettiquduq va To'rtquduq yo'li orqali G'ijduvonga keladi va uni egallaydi. Tez orada Buxoroga hujum qilib shaharni qamal qiladi. Ubaydullaxon atigi 2500–3000 nafar askari bilan Malikrabort orqali Buxoroning hozirgi Jondor tumani (Xayrobod tumani) Malik ko'li atrofiga yetib boradi va to'satdan xotirjamlik bilan kelayotgan Bobur qo'shiniga hujum qiladi 1512-yil 28-aprelda bo'lgan bu jangda Bobur yengiladi. Samarqand masjidida Ubaydullaxon va g'alabasi sharafiga xutba o'qilgan. Ushbu jang turkiy xalqlar balki jahon tarixi jang sanataida munosib iz qoldirgan.

«*Suluk-al muluk*»da keltirilgan ma'lumotlar temuriylar yo'nalishidagi tarixchilarning asarlarida yo'q. Fazlulloh ibn Ruzbehon Zahiriddin Muhammad Boburga qo'shinining turfa xilligi, ularning soni to'g'risida ma'lumot beradi, Movarounnahrning turli ijtimoiy qatlamlari kayfiyatini tavsiflaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur esa qizilboshlilar yordamida Samarqand va Buxoroga yetib keldi. Uning qo'shini Chig'atoy, Mug'ul, Turkman, Badaxshon va hatto hindistonliklardan iborat deb ma'lumot beradi. Ularning soni 60 ming otliq edi deb keltiradi [1: 11]. Keyingi yilnomalar mualliflari Fazlulloh ibn Ruzbehon ijodidan asosiy manba sifatida foydalanganlar. Bunga temuriylar yo'nalishidagi ilk tarixiy bitiklar ta'siridan chetda qolmagan Mahmud bin Valiyning «*Bahr al-asror*», Abdulloh Nasrullohiyning «*Zubdat ul-osor*» kabi asarlarini misol qilish mumkin. Bu mualliflar, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning shayboniylar bilan munosabatlarida nisbatan Fazlulloh ibn Ruzbehonning yondashuvini qabul qiladilar.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI	3
------------------------	---

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK

Allayeva N.A. Bobojon Safarovning «Xorazm xonliklariga tegishli tarixiy materiallar» asari borasida	5
Пуговкина О. Дневники О.Н. Маллицкой: об эпохе и судьбе русской интеллигенции	9
Mehti-zade S.Ç. Azərbaycan 'ın ortaçağ kentleri Evliya Çelebi 'nin «seyahatname»sinde	16
Aminov H.A. Ismoil Gaspiralining «Turkiston lamosi» asari haqida.	22
Muhammadaminov S.M. Movarounnahrda mug 'ullar davriga oid qozilik ishlarini yuritishga doir ikki asarning qo 'lyozmalari xususida	29
Lutfillayev H.M. Temuriylar davri tafsirlarida moturidiylik ta 'limoti	35
Abdupattayev M.M. Ibn Xaldunning «Muqaddima» asarida yahudiylar va xristianlik dini rohiblari funksiyalarining yoritilishi	39
To'rayev L.A., Nizomova N.Q. Mahmud Zamaxshariy «Rabi' al-abror» asarining Yevropadagi qo 'lyozmalari tavsifi.	42
Jaynarov O.H. O 'zbekiston Milliy arxivining R-904 fondi advokatura tizimida o 'tkazilgan «tozalash» siyosatini yoritish manbasi sifatida.	50
Musametov B.E. Ibn Sinoning «Yurak dorilari» nomli risolasining 12-fasli haqida	55
Abdurazzoqova-Abduraxmonova Y.M. «Fotuhati shohiy» asari XVI asr Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni o 'rganishda muhim manba sifatida.	61
Faromarzi F., Vohidova M. Esdaliklar tarixiy manba sifatida (Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari misolida).	66
Fayzullayev F.E. Fazlulloh Ibn Ruzbehonning «Suluk al-muluk» asarining tadqiqi va tasnifi	76
Kuranbayeva U. Bir jumlada ikki asr tarixi bayoni.	81
Mamadjanov A.A. «Tuhfat al-xoniy» Mang 'itlar davri etnik hayotiga oid muhim manba	85
Murodova R.D. O 'zbekiston muzeylarida restavratsiya laboratoriyalarining tashkil topishi	91
Nasirillayeva N.F. Abdulla Nosirov yozma merosi va uning tasnifi	97
Ostonov J.D. Markaziy Osiyoning islomlashuviga bag 'ishlangan fransuz tilidagi ba 'zi tadqiqotlar	105
Xidirova G.R. «Tarixi Rashidiy» asarida gidronimlar tavsifi	112
Хуснутдинов Ф.Р. Утерянный автограф зачётного сочинения А.Э. Шмидта о четверостишиях Хафиза	117
Чориев Ш.Х. Источнико-архивоведческий анализ банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства	121
Saparov S.X. O 'zbekistonlik olimlarning kidariylar bo 'yicha tadqiqotlari.	129

Ishiyama M. <i>The articles of Zarif Bashiri in The Turkistan Communist Party Newspaper «Turkiston».</i>	134
Идиев А. <i>Китобат ул-атфол: Вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие образования в Туркестане</i>	143

MARKAZIY OSIYO TARIXI

Sultonov O‘.A. <i>Turkiston xonliklari saroy devonxonasi shakllanishi masalasiga doir.</i>	149
Rahimov K.R. <i>O‘rta asr Buxoro kutubxonalari tarixidan.</i>	157
Jamolova D.M. <i>Hoji Muin publitsistikasida Turkiston tarixi masalalari.</i>	162
Azizpour Sh. <i>Persian-Central Asian artistic encounters on The Silk Road: Bandian & Panjikent in visual dialogue</i>	169
Axmatov A. <i>Buxoro jadid adabiyoti vakillarining 1917–1920-yillardagi taqdiri.</i>	178
Djumaniyazova F. <i>Ilk «Turkon» Xotun – Xunak Xotun yoki Qabaj Xotun, Xunakxudot – Buxoroning ilk o‘rta asr turkiy hukmdorlari.</i>	182
Ismoilov Sh.Z. <i>X–XI asrlarda Xorazm aholisining etnik va diniy tarkibi (manbalar tahlili asosida).</i>	189
Misa H.R. <i>O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi bo‘yicha yangi tadqiqotlar: savdo aloqalari va iqlimshunoslik misolida.</i>	195
Karimov Sh.Sh. <i>Qo‘shvazirlik – Temuriylar davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos tizim.</i>	200
АДИЛОВ ДЖ. <i>Герб Туркестанского генерал-губернаторства: история создания и его семантика.</i>	206
Aslonova A.A. <i>Buxoro adiblarining pedagogik faoliyati.</i>	213
Ermatova M.A. <i>Amudaryo bo‘limining mahalliy sud tizimida ayollarning o‘rni</i>	217
Hamrayev S. <i>Enazar elchi madrasasini Yekaterina II qurdirganmi?</i>	222
Jumaeva N.A. <i>From the history of the farming culture in Lower Zarafshan oasis (during late XIXS and early 20s).</i>	228
Nosirov Sh.O‘. <i>Buxoro amirligidagi aprel voqealarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ishtiroki</i>	237
Quvvataliyev U.B. <i>Bo‘lat Soliyevning «O‘rta Osiyo tarixi» asari haqida</i>	241
Suvonkulov M. <i>Jizzax vohasi «turk» guruhining moddiy madaniyati (kiyim-kechak va uni tayyorlash asboblari misolida)</i>	246
Toshtemirova Sh.Sh. <i>Avestoda ayollar: muqaddas obraz, ijtimoiy mavqe va unutilgan tenglik</i>	253
G‘oyibnazarova M.O‘. <i>Mahmudxo‘ja Behbudiy: urf-odat va an‘analar haqida.</i>	259
To‘rayeva G.B. <i>O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro shahrida suv ta‘minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar</i>	264

ISLOM SHUNOSLIK

Usmanov I.S. <i>Hanafi mazhabida shar'iy hiylalar.</i>	272
Ismatova N.A. <i>Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)</i>	280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. <i>Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах</i>	284
Jumaniyozov M.D. <i>«Kifayatu-n-nahw fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili.</i>	291
Jo'rayev M.X. <i>Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi.</i>	304
Mirzayev N.M. <i>Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida.</i>	310
Dadamirzaev M.O. <i>Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili.</i>	315
Salimova D.A. <i>«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi.</i>	320
Samsakova H. <i>Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi.</i>	326
Sayfullaev M.S. <i>«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni.</i>	330
Yunusova S.O. <i>«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi</i>	334
Hamdamova Sh.V. <i>Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi.</i>	341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. <i>O'rtaturk tili va o'rta tabiiy yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojida o'rni</i>	347
Yanar C. <i>Türk dünyası doküman mirasında samsun yöresi dokümanlarından bazı nakışlar (elibesinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz).</i>	353
Пилипчук В.Я. <i>К истории басмыльской государственности.</i>	363
Memmedova M.N. <i>Azərbaycan və özbək xalq kültüründə doğum ritüelleri</i>	365
Özkurt K. <i>From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yıldırım Bayezid</i>	378
Тохтиев Ш.Р. <i>Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране</i>	391
Xodjimuratova D.S. <i>Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari.</i>	398
Kamoliddinov F.B. <i>Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari</i>	404
Nurumbetova S.R. <i>Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi</i>	409
Tojiev D.B. <i>Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects</i>	413